

KASIMOVA Zebo Xamidovna
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika
kafedrası mudiri, professor*

JO'RAYEVA Nargiza Jamolidinovna
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika
kafedrası dotsenti, PhD*

BMT MINBARIDA TA'LIM: YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI

ОБРАЗОВАНИЕ НА ТРИБУНЕ ООН: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

EDUCATION AT THE UN TRIBUNE: PRIORITY DIRECTIONS OF EDUCATIONAL POLICY IN NEW UZBEKISTAN

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, davlat siyosati va O'zbekistonning xalqaro miqyosda inson kapitaliga qaratayotgan e'tiboriga oid tahliliy materiallar keltirilgan. Alohida e'tibor 2025-yil 23-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqiga qaratilgan. Ushbu nutqda u "Yangi O'zbekiston" strategiyasi kontekstida yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish masalasi va bu yo'nalishda erishilgan natijalar bo'yicha mamlakatning pozitsiyasini jahon hamjamiyati oldida bayon etdi.

Kalit so'zlar: sifatli ta'lim, global muammolar, maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim, o'qituvchilar maqomini oshirish, raqobatbardosh inson kapitali.

Аннотация. В данной статье приведены аналитические материалы о проводимых в настоящее время в Новом Узбекистане реформах в сфере образования, государственной политике и внимании, уделяемом человеческому капиталу Узбекистана на международном уровне. Особое внимание уделяется выступлению Президента Шавката Мирзиёева на Генеральной Ассамблее ООН 23 сентября 2025 года, в котором он представил мировому сообществу позицию страны по вопросу

раскрытия потенциала молодежи в контексте стратегии «Новый Узбекистан» и достигнутым результатам в этой области.

Ключевые слова: качественное образование, глобальные проблемы, дошкольное образование, высшее образование, повышение статуса учителей, конкурентоспособный человеческий капитал.

Annotation. This article presents analytical materials about the current educational reforms being carried out in New Uzbekistan, state policy, and the attention given to Uzbekistan's human capital at the international level. Special focus is placed on the speech delivered by President Shavkat Mirziyoyev at the UN General Assembly on September 23, 2025, in which he expressed the country's position before the international community regarding the achievements in unlocking youth potential within the context of the "New Uzbekistan" strategy.

Keywords: quality education, global challenges, preschool education, higher education, raising the status of teachers, competitive human capital.

KIRISH

Dunyo hamjamiyatini yosh avlodning zamonaviy jamiyatga to'laqlonli kirib borishini ta'minlash uchun hayotiy zarur malakaga ega bo'lishiga yo'naltirilgan sifatli umumiy ta'lim masalalari tashvishga solmoqda. Shundan kelib chiqib, ta'limning sifati davlat xavfsizligi, global barqarorlik, uzoq muddatli rivojlanishi va farovonlikning asosi bo'lib xizmat qiladi. Aynan shuning uchun ham YUNESKO ta'limni o'z faoliyatining ustuvor sohasi deb hisoblaydi [1]. Sifatli umumiy ta'lim aholining yuqori turmush darajasi ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, gender tenglikni ta'minlash sharti, ijtimoiy va madaniy uyg'unlik va iqtisodiy o'sishning samarali vositasi hisoblanadi. Maktab ta'limi, ilm-fan, madaniyat va aholining intellektual salohiyatining sifati sezilarli darajada zamonaviy jamiyatning yanada rivojlanishini belgilaydi, tamaddunga o'zining doimiy mavjudligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

ASOSIY QISM

Jahonda inson resurslariga investitsiyalar hajmini oshirish, yosh avlod uchun keng imkoniyatlarni ta'minlash jarayonini takomillashtirish, ta'lim, jumladan, maktab ta'limi samaradorligi ko'rsatkichlariga e'tiborni sezilarli darajada oshirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu ularning

yuqori sifatli ta'lim olishlari bilan bog'liq bo'lib, asosan, ta'limni sifatli boshqarishning tashkiliy va pedagogik sharoitlariga bog'liq. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqib ta'limni rivojlantirish, pedagogik jamoada sog'lom muhitni tarkib toptirish, ta'lim sifatini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganda, qobiliyatli va iqtidorli ta'lim oluvchilarni o'qitilgandagina sifatli ta'lim yuzaga keladi. Zero, inson taraqqiyoti darajasini eng ko'p belgilab beradigan ta'lim sohasi jahondagi tobora ko'plab mamlakatlarning milliy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalar davlatni rivojlantirishning samarali mexanizmi va uni shakllantirishning samarali omiliga aylanmoqda [3].

Har yili BMT Bosh Assambleyasining umumiy muhokamalari dunyo davlatlari uchun muhim maydon – global muammolarni muhokama qilish, strategik tashabbuslarni ilgari surish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.

2025 yil 23 sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu platformada nutq so'zlab, “Yangi O'zbekiston” strategiyasi kontekstida dunyo hamjamiyati oldida o'z pozitsiyasini bayon etdi. Nutq, ayniqsa, zamonaviy dunyoning murakkabliklari – geosiyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy tengsizlik, iqlim o'zgarishi, suveren davlatlarning suverenitetini himoya qilish masalalari bilan bog'liq bo'lgan strategik jihatlarga qaratilgan edi. Shuningdek, jahon ahlini tinchlik, barqarorlik, hamkorlik va bag'rikenglik ruhida yashashga chaqiruvchi chaqiriqlar ham yangradi. Uning quyidagi tashabbuslari alohida e'tiborga molik:

- Afg'oniston masalasida konstruktiv pozitsiya;
- Markaziy Osiyoda suv resurslarini adolatli va samarali boshqarish tashabbusi;
- Inson huquqlarini himoya qilish va demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishga doir islohotlar;

- Xalqaro ta'lim hamkorligini kengaytirish.

Ayniqsa, u ta'lim sohasidagi yutuqlar, xususan maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim qamrovining keskin oshgani haqida to'xtalib o'tdi. Xalqaro miqyosda O'zbekistonning inson kapitaliga berayotgan e'tiborini, yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi qat'iy irodasini namoyon etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nutqida global muammolar va xalqaro institutlarga ishonchni

tiklash bilan birga ichki islohotlar va ijtimoiy taraqqiyotga to'xtalib, O'zbekiston ichki siyosatida amalga oshirilayotgan keng doiradagi islohotlar haqida ham ma'lumot berdi. Qashshoqlik darajasi so'nggi yillarda 35 foizdan 6,6 foizga tushirilgan. Bu ko'p jihatdan ta'lim, tibbiyot, innovatsion sanoat va infratuzilma modernizatsiyasi orqali amalga oshirilgan. Gender siyosati jihatidan ayollar rolini oshirishga, ularning siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotda ishtirokini kengaytirishga e'tibor qaratilgan.

Yangi strukturalar va strategik tashabbuslar borasida “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni tashkil etish va uning qarorgohini O'zbekistonda joylashtirish taklifi berildi. Unga muvofiq, global yoshlar tarmog'i tinchlik, hamjihatlik, do'stlik tamoyillari asosida faoliyat yuritishi mumkin.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini 27 foizdan 78 foizga erishilgani qisqa muddat ichida salmoqli natijalar qayd etilganini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'limning kengaytirilishi bolalarning erta intellektual va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalarning soni ko'paytirilishi, pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish choralari, maktabgacha ta'lim dasturlarining zamonaviy metodikalar asosida ishlab chiqilishi kabilar bu borada aniq va rejali islohotlar olib borilayotganini anglatadi. Ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilishi – bu sohaning davlat siyosatida ustuvor o'rin egallayotganini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim qamrovi bo'yicha keltirilgan raqamlar nafaqat ichki statistik ma'lumotlar, balki xalqaro miqyosdagi yutuqlarning dalilidir. Ta'limga kirishish imkoniyatining tenglashuvi, ayniqsa qishloq joylarda istiqomat qilayotgan oilalar uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, bolalar bog'chasiga borayotgan farzandlar sonining ortishi ayollar bandligi va oilalarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Yurtboshimiz o'z nutqlarida: “Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga oshirildi”, [4] deb ta'kidlab o'tdilar. Bu degani, ilgari har 100 nafar yoshdan atigi 9 nafari oliy ta'lim muassasalarida tahsil olish imkoniga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 42 nafarga yetgan. Bu juda katta ijtimoiy o'zgarish va imkoniyatlarni bildiradi. Bunga erishishda quyidagi omillar muhim rol o'ynadi:

- Yangi oliy o‘quv yurtlari, jumladan xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi;
- Kontrakt asosida o‘qish imkoniyatlarining kengaytirilishi va ta’lim kreditlari joriy qilinishi;
- Masofaviy ta’lim shakllari orqali ko‘proq yoshlarni qamrab olish;
- Ta’lim yo‘nalishlarining diversifikatsiya qilinishi va bozor talablariga moslashtirilishi.

Bu yutuqlar natijasida yoshlar orasida ilmga, kasbga, o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilish keskin oshdi. Natijada, mamlakatda raqobatbardosh inson kapitali shakllanmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu raqamlarni BMT minbarida tilga olishi O‘zbekistonning xalqaro ta’lim makonidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu, bir tomondan, BMTning 2030 yilga mo‘ljallangan Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish borasidagi milliy hissa bo‘lsa, boshqa tomondan, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlaydi.

Shuningdek, mamlakatda o‘qituvchilar maqomini oshirish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham etirof etildi. O‘qituvchilar maqomi – dunyo bo‘yicha barcha rivojlangan davlatlarda inson kapitali sifatini belgilaydigan asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. BMT doirasida ham “2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari” ichida sifatli ta’limga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatda ta’lim sifatini yuksaltirish birinchi navbatda o‘qituvchining obro‘-e’tiborini tiklash orqali amalga oshirishga urinilayotgani, demak, islohotlar markazida maktab emas, balki o‘qituvchi shaxsiyati turganligini anglatadi. O‘qituvchi maqomining oshishi – nafaqat ularning moddiy ta’minoti, balki ijtimoiy nufuzi, huquqiy himoyasi va kasbiy qadr-qimmatining yuksalishini anglatadi. Jamiyatda o‘qituvchiga bo‘lgan munosabat faqat maosh bilan emas, balki uning ijtimoiy faolligi, qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki bilan ham o‘lchanadi. O‘qituvchi shaxsiyatini yuksaltirishga qaratilgan siyosat – O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning markazida turibdi. Bunday yondashuv faqat soha ichida emas, balki umummilliy taraqqiyot va barqarorlikni ta’minlashda hal qiluvchi omildir. Bu fikrni BMT kabi xalqaro minbarda tilga olinishi, mamlakatning o‘qituvchi sha’nini himoya qilishni milliy strategiya darajasiga olib chiqqanini anglatadi. Bu esa sifatli ta’limning asosiy omili – pedagogik salohiyatning mustahkamlanishini bildiradi.

Ta’lim har qanday davlat taraqqiyotining asosi sanaladi. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha va oliy ta’lim qamrovining sezilarli darajada kengaytirilishi mamlakat kelajagiga qaratilgan uzoq muddatli strategiyaning amaliy ifodasidir.

XULOSA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMTdagi nutqida ushbu natijalarning xalqaro auditoriyaga taqdim etishi auditoriya uchun muhim siyosiy va gumanitar signal bo‘lib, davlatimizning kelgusi rivojlanish strategiyasida inson omili, ta’lim, tenglik va adolat ustuvor o‘rinda ekanini tasdiqladi va O‘zbekistonning inson kapitaliga asoslangan rivojlanish modelini ilgari surayotganini ko‘rsatadi. Bu esa ta’limni ustuvor yo‘nalish sifatida tanlagan davlat sifatida O‘zbekistonning mintaqadagi yetakchiligini mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu islohotlarni izchil davom ettirish, ta’lim sifati va qamrovini yanada kengaytirish orqali O‘zbekiston o‘z taraqqiyot strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda davom etadi.

Ta’lim – jamiyat taraqqiyotining asosi. O‘zbekistonning bu boradagi yondashuvi, islohotlar samaradorligi va global maydondagi taqdimoti boshqa rivojlanayotgan davlatlar uchun ham namuna bo‘la oladi. Albatta, bu yo‘lda qilinadigan ishlar hali ko‘p, biroq bugungi natijalar O‘zbekiston ta’limi ertangi kuniga mustahkam zamin yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авдиль А.Э. Роль ЮНЕСКО в развитии современного образования / Образование и наука в современных условиях: материалы VIII Междунар. науч.-практ. конф. – Чебоксары: Интерактив плюс, 2016. – С. 81-83.
2. Азаров В.Н., Беллабарра А. и др. Управление качеством в образовании. – М.: Качество, 2002. – 94 с.
3. Болотов В.А. Становление общероссийской системы оценки качества образования. // Справочник зам. директора школы. – 2007. – №10. – С. 18-24.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/8525>. Murojaat sanasi: 18.10.2025. 23.09.2025.